O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SURXONDARYO VILOYATI SHO‘RCHI TUMANI HOKIMINING

QARORI

Sho‘rchi tumani, Mustaqillik ko‘chasi 72-uy. 191500 tel.: (+99876) 457-41-00, shurchi_t@exat.uz

2022 - yil 30 - iyun 228-8-120-Q/22 Sho‘rchi tuman hokimligi

Sho‘rchi tumanining qishloq aholi punktlari hamda ijtimoiy soha ob’ektlariga ichimlik suvini maxsus texnikalarda yetkazib berish tariflarini belgilash to‘g‘risida

“Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6,25-moddalari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 15 iyuldagi 194-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Iste’molchilarga suv ta’minoti va oqova suvni chiqarish xizmatlari ko‘rsatish qoidalari”ning 118-bandi ijrosini ta’minlash maqsadida,

QAROR QILAMAN:

1. Tumanning qishloq aholi punktlariga ichimlik suvini maxsus texnikalarda yetkazib berish tariflari 1-ilovaga muvofiq, qishloq hududidagi ijtimoiy soha obyektlariga ichimlik suvini maxsus texnikalarda yetkazib berish tariflari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Mazkur qaror mahalliy davlat hokimiyati organlari qarorlari e’lon qilinadigan rasmiy manbalarda Jarayon gazetasida (B.Elmurodova) rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

3. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari A.Cho‘libaev zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi **Xudoyberganov B.X**

Sho‘rchi tuman hokimining
2022 yil 30 iyundagi
228-8-120-Q/22-son qaroriga
1-ilova

Tumanning qishloq aholi punktlariga ichimlik suvini maxsus texnikalarda yetkazib berish

T A R I F L A R I

№	Hududlar nomi	Suv olish nuqtasidan aholi punktigacha bo‘lgan o‘rtacha masofasi (km)	QFY soni	Hudud bo‘yicha o‘rtacha tarif		
				so‘m/ tn-km	so‘m/tn	so‘m/ litr
1.	Oliy Himmat MFY	15	1	1150	11423	115
2.	Ezgulik MFY	11	1			
3.	Qora Ariq MFY	18	1			
	Jami	**44**	**3**			

Sho‘rchi tuman hokimining
2022 yil 30 iyundagi
228-8-120-Q/22-son qaroriga
2-ilova

Qishloq hududidagi ijtimoiy soha ob’ektlariga ichimlik suvini maxsus texnikalarda yetkazib berish

T A R I F L A R I

QQSsiz

№	Hududlar nomi	Suv olish nuqtasidan aholi punktigacha bo‘lgan o‘rtacha masofasi (km)	Ijtimoiy muassasa soni	Hudud bo‘yicha o‘rtacha tarif		
				so‘m/tn-km	so‘m/tn	so‘m/ litr
1.	Oliy Himmat MFY	15	2	1150	11423	115
2.	Ezgulik MFY	11	3			
3.	Qora Ariq MFY	18	3			
	Jami	**54**	**8**			